IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 23 Issue 01 AVGUST 2026

INSON SHA'NI VA QADR-QIMMATI DAXLSIZLIGI: TUSHUNCHASI VA HUQUQIY ASOSLARI

Aminjonova Sevinch G'ayrat qizi
Tashkent International University,
yurisprudensiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Yo'ldoshov Azamatjon Ilxomjon o'g'li
Tashkent International University,
yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi
E-mail: yoldoshovazamat65@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21990726

Annotatsiya: Ushbu maqolada demokratik huquqiy davlatning fundamental asosi hisoblangan inson sha'ni va qadr-qimmati hamda shaxs daxlsizligi tushunchalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — ushbu tushunchalarning O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi va xalqaro huquqiy standartlardagi o'rnini aybsizlik prezumpsiyasi tamoyili bilan bog'liq holda yoritishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy va mantiqiy sharhlash metodlaridan foydalanildi; Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Jinoyat-protsessual kodeksi normalari qiyoslandi. Tahlil natijasida inson qadr-qimmati tushunchasining huquqiy mazmuni aniqlashtirildi va uning shaxs daxlsizligi hamda aybsizlik prezumpsiyasi bilan uzviy bog'liqligi asoslandi. Konstitutsiyaviy islohotlar natijasida moddalar sonining 128 tadan 155 taga, normalar sonining esa 275 tadan 434 taga oshgani statistik jihatdan tahlil qilindi. Maqola yakunida milliy qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan aniq takliflar shakllantirildi.

Kalit so'zlar: inson qadri, shaxsiy daxlsizlik, huquqiy himoya, konstitutsiyaviy kafolatlar, xalqaro standartlar, normativ-huquqiy asoslar.

KIRISH

Hozirgi rivojlanayotgan dunyoda inson huquqlarini himoya qilish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, inson sha'ni va qadr-qimmati hamda shaxs daxlsizligi tushunchalari alohida ahamiyat kasb etadi, chunki har bir davlatning oliy maqsadi inson va fuqarolarning huquqlarini ta'minlashdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasida belgilanishicha, insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadi hisoblanadi; davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi.

Inson qadri tushunchasi shunchaki axloqiy yoki falsafiy termin bo'lib qolmay, balki huquqiy tizimning adolatlilik darajasini belgilovchi fundamental mezon hisoblanadi. Inson qadri daxlsiz bo'lmagan sharoitda adolatli sudlov, fuqarolik jamiyati, barqaror taraqqiyot va erkin fikrlash haqida so'z yuritish mumkin emas. O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida "shaxs — jamiyat — davlat" tamoyilining mustahkamlanishi ham inson qadrini islohotlarning markaziga qo'yishga qaratilgan siyosiy-huquqiy irodaning ifodasi sifatida baholanishi mumkin.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, huquqiy davlat barpo etish jarayonida inson qadrini himoya qilishning protsessual kafolatlarini, xususan, aybsizlik prezumpsiyasi tamoyilini yanada takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Sud hukmi qonuniy kuchga kirmasdan turib shaxsni aybdor deb e'lon qilish yoki uning sha'niga putur yetkazuvchi ma'lumotlarni tarqatish inson

qadr-qimmatini poymol etuvchi holat hisoblanadi; bunday buzilish nafaqat huquqiy xatoga, balki inson hayotida tiklab bo‘lmas ma’naviy zararlarga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi — shaxs daxlsizligini ta’minlashning huquqiy mexanizmlarini yoritish, aybsizlik prezumpsiyasining inson huquqlari tizimidagi o‘rnini aniqlash hamda ushbu sohadagi xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka tatbiq etilish masalalarini tizimli tahlil qilishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, inson qadri va sha’ni tushunchalari nazariy jihatdan keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularni yangi tahrirdagi Konstitutsiya va sud-huquq islohotlari kontekstida, xususan, shaxs daxlsizligining protsessual kafolatlari bilan uzviy bog‘liqlikda tadqiq etish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi: tizimli tahlil metodi — tushunchalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash uchun; qiyosiy-huquqiy metod — milliy va xalqaro normalarni taqqoslash uchun; mantiqiy sharhlash metodi — huquqiy normalarning mazmunini ochib berish uchun. Tadqiqot manbai sifatida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat-protsessual kodeksi va “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun normalari tahlil qilindi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Inson sha’ni va qadr-qimmati tushunchasi

Inson sha’ni va qadr-qimmati tushunchalari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini, uning o‘z-o‘ziga bo‘lgan hurmatini hamda davlat tomonidan unga nisbatan ko‘rsatiladigan e’tiborni ifodalaydi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atiga ko‘ra, “sha’n” tushunchasi ikki ma’noni anglatadi: birinchisi — insonga, shaxsga tegishli bo‘lgan qadr-e’tibor; ikkinchisi — sharaf, shuhrat, obro‘. “Qadr-qimmat” esa jamiyatda, kishilar o‘rtasida tutgan o‘rin, o‘zgalar tomonidan bo‘lgan hurmat va e’tiborni bildiradi. Ta’rifdagi “o‘zgalar tomonidan bo‘lgan hurmat” qismi shuni ko‘rsatadiki, qadr-qimmat faqat shaxsning ichki tuyg‘usi emas, balki uning jamiyat tomonidan e’tirof etilishidir: inson o‘zgalarning huquq va erkinliklarini qanchalik hurmat qilsa, uning o‘z qadri ham jamiyat ko‘z o‘ngida shunchalik yuksaladi.

Ushbu lug‘aviy ma’nolar shunchaki axloqiy tushunchalar bo‘lib qolmay, balki zamonaviy huquqshunoslikda shaxsning daxlsiz huquqlari toifasiga kiradi. Inson qadr-qimmati — har bir insonning o‘ziga xos xususiyatlari va sharoitlaridan qat’i nazar unga xos bo‘lgan qadriyat bo‘lib, u irqi, millati, jinsi, dini, nogironligi, yoshi yoki boshqa farqlovchi omillardan qat’i nazar barcha shaxslarga hurmat, adolat va tenglik bilan munosabatda bo‘lish huquqini o‘z ichiga oladi. Bu tushuncha inson huquqlari va farovonligini himoya qilishga qaratilgan xalqaro inson huquqlari normalari, milliy konstitutsiyalar va ichki qonunlarga asoslangan bo‘lib, boshqa asosiy huquq va erkinliklarni tan olish va himoya qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shaxs daxlsizligi tushunchasi va konstitutsiyaviy kafolatlari

Yuridik terminlar izohli lug‘atiga ko‘ra, shaxsiy daxlsizlik — insonning asosiy va begonalashtirilmaydigan shaxsiy huquqlaridan biri bo‘lib, jazo choralarini qo‘llashda zo‘ravonlikka yo‘l qo‘yilmasligini nazarda tutadi[1]

Shaxsiy daxlsizlikning konstitutsiyaviy kafolatlari quyidagilardan iborat:

1) jinoyat tarkibi oldindan chiqarilgan qonun bilan aniqlanishi kerak;

[1]Huquqiy atamalar lug‘ati. // https://huquqiyportal.uz/dictionary

2) ushlab turish ustidan sudga shikoyat qilish mumkin, sud qarorisiz ushlab turishning eng katta muddati belgilanadi;

3) hibsga olish faqat sud buyrug‘i yoki prokuror ruxsati bilan amalga oshirilishi kerak;

4) ozodlikdan mahrum qilish faqat protsessual kafolatlarga rioya etilgan tergov va sud jarayonida shaxsning aybi aniqlangandan so‘ng qo‘llaniladigan jazo bo‘lishi lozim.

Ushbu qoidalar shuni ko‘rsatadiki, shaxsiy daxlsizlik shunchaki jismoniy daxlsizlik bo‘lib qolmay, balki davlat va shaxs o‘rtasidagi huquqiy muvozanatni ta’minlovchi fundamental institutdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida inson sha’ni va qadr-qimmati daxlsizligi alohida norma sifatida belgilab qo‘yilgan.

Xalqaro huquqiy tizimda ham ushbu tamoyillar mustahkamlangan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 5-moddasiga ko‘ra, inson shaxsi har qanday holatda ham daxlsiz bo‘lib, hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoxud qadr-qimmatni xo‘rlovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi shart. Deklaratsiyaning 8-moddasi har bir insonning konstitutsiyaviy yoki qonuniy huquqlari buzilgan taqdirda milliy sudlar tomonidan ushbu huquqlarning samarali tiklanishi huquqini, 9-moddasi esa hech kimning asossiz ravishda qamalishi yoki quvg‘in qilinishiga yo‘l qo‘yilmasligini belgilaydi. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 10-moddasi 1-bandida "ozodlikdan mahrum etilgan barcha shaxslar insonlarcha muomala qilinish va inson shaxsiga xos bo‘lgan qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga ega" ekanligi mustahkamlangan. Bu normalar shuni anglatadiki, insonning ozodligi cheklangan taqdirda ham uning insoniy qadri daxlsiz bo‘lib qoladi.

Aybsizlik prezumpsiyasi tamoyili

Aybsizlik prezumpsiyasi — shaxs daxlsizligini ta’minlashning eng muhim protsessual kafolatlaridan biri bo‘lib, u asossiz ayblash va hukm qilishni istisno etadi[2]. Ushbu tamoyilga ko‘ra, jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlanmaguncha aybsiz hisoblanadi va uni hech kim aybdor deb e’lon qila olmaydi.

Ushbu tamoyil bir qator xalqaro hujjatlarda — 1948-yil 10-dekabrdagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yil 16-dekabrdagi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt hamda 1950-yildagi Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasida mustahkamlangan. Xususan, Xalqaro paktning 14-moddasida "jinoyatda ayblangan har bir kishi qonunga muvofiq aybdorligi isbotlanmaguncha aybsiz deb hisoblanish huquqiga ega" ekanligi, Deklaratsiyaning 11-moddasida esa ayblanuvchining “himoyasi uchun zarur bo‘lgan barcha kafolatlarga ega bo‘lgan ochiq sudda qonunga muvofiq aybdorligi isbotlanmaguncha aybsiz deb hisoblanish huquqi” belgilangan.

Milliy qonunchilikda ushbu tamoyil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida mustahkamlangan[3]: jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi; ayblanuvchiga o‘zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta’minlanadi. Xuddi shunday norma 2021-yil 28-iyulda qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasida hamda Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasida ham takrorlangan[4].

Aybsizlik prezumpsiyasining tub mohiyati shundaki, isbotlash majburiyati ayblanuvchiga emas, balki davlat organlariga yuklanadi: shaxs o‘z aybsizligini isbotlashi shart emas, aksincha, uning aybdorligini isbotlash mas’uliyati to‘liq ayblovchi tomon zimmasida bo‘ladi. Ushbu yondashuvning huquqiy ildizi qadimgi Rim huquqiga borib taqaladi: Rim yuristlari tomonidan

[2]Madiyev F. Shaxsiy huquq va erkinliklarning konstitutsiyaviy asoslari. — Toshkent, 2023. — B. 34.
[3]O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 28-modda.
[4]O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 23-modda.

shakllantirilgan “Ei incumbit probatio qui dicit, non qui negat” (“kim da’vo qilsa, isbotlash ham o‘sha zimmasida”) qoidasi aybdorlikni emas, aybsizlikni asosiy yondashuv sifatida qabul qilgan[5].

Shaxs aybi isbotlanmasdan turib aybdor deb e’lon qilinishi aybsizlik prezumpsiyasining buzilishi, demak, shaxsning sha’ni va qadr-qimmatining buzilishi sifatida baholanadi. Shu tariqa, inson sha’ni, qadr-qimmati, shaxs daxlsizligi va aybsizlik prezumpsiyasi tushunchalari uzviy bog‘liqlik kasb etadi.

Konstitutsiyaviy islohotlar natijalari

Ko‘rsatkich	Amaldagi (eski) tahrir	Yangi tahrir
Moddalar soni	128	155
Normalar soni	275	434
Matn hajmining o‘sishi	—	65%

Jadvaldagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Konstitutsiya matnining umumiy hajmi oldingi tahrirga nisbatan qariyb 65 foizga ortdi. Muallifning fikricha, bu miqdoriy o‘sish shaxs daxlsizligini ta’minlashga qaratilgan yangi huquqiy kafolatlarning kengaytirilishi bilan bog‘liq bo‘lib, jumladan, “Miranda qoidasi”[6] va “Habeas corpus”[7] kabi institutlarga oid tamoyillar milliy huquqiy makonda ilmiy-nazariy muhokama predmetiga aylanmoqda. Ushbu institutlarning aniq qaysi konstitutsiaviy yoki qonun normalarida mustahkamlanganini ko‘rsatish keyingi tadqiqotlar uchun dolzarb yo‘nalish bo‘lib qoladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, inson sha’ni, qadr-qimmati va daxlsizligi zamonaviy O‘zbekiston davlatchiligining ham axloqiy, ham huquqiy o‘zagini tashkil etadi. Konstitutsiyaviy islohotlar natijasida Asosiy qonun matnining kengaytirilishi hamda moddalar sonining oshishi shaxs huquqlarini himoya qilishning sifat jihatidan yangi bosqichini boshlab berdi. Aybsizlik prezumpsiyasi esa shaxsning sha’ni va obro‘sini asossiz ta’qiblardan himoya qiluvchi eng ishonchli protsessual kafolat sifatida o‘z isbotini topmoqda.

O‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Jinoyat-protsessual kodeksining aybsizlik prezumpsiyasiga oid normalarini ommaviy axborot vositalarida sud hukmigacha shaxsni aybdor sifatida taqdim etishni taqiqlovchi aniq mexanizmlar bilan to‘ldirish;

2. Shaxsning sha’ni va qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi noqonuniy harakatlar uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralarini kuchaytirish.

Inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan islohotlarning samaradorligi nafaqat qonunlarning takomillashuvi, balki jamiyatda yuksak huquqiy madaniyatning shakllanishi bilan bevosita bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Хусанов О.Т. Конституционное право. — Тошкент, 2023.
2. Мадиев Ф. Конституционные основы личных прав и свобод. — Тошкент, 2023. — Б. 34, 37.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

[5]Ei incumbit probatio qui dicit, non qui negat. // https://simple.wikipedia.org/wiki/Presumption_of_innocence

[6]Miranda qoidasi — vakolatli davlat organi xodimi tomonidan ushlanayotgan shaxsga uning sukut saqlash huquqi va aytgan har bir so‘zi sudda unga qarshi ishlatilishi mumkinligi haqida ogohlantirish. // https://uz.wikipedia.org/wiki/Miranda_qoidasi

[7]Habeas corpus (lot. “tanani, shaxsni sudga keltirish”) — jinoiy ta’qibga uchragan, hibsga olingan yoki qamoqda saqlanayotgan fuqaroning adolatli sud orqali himoyalanish huquqi. // https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/habeas_corpus_uzbekistonda_inson_huquqlarining_ishonchli_kafolati

4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni, 2021-yil 28-iyul.
6. Universal Declaration of Human Rights, 1948-yil 10-dekabr. // https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights
7. International Covenant on Civil and Political Rights, 1966-yil 16-dekabr. // https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights
8. Presumption of innocence. // https://simple.wikipedia.org/wiki/Presumption_of_innocence
9. Huquqiy atamalar lug‘ati. // https://huquqiyportal.uz/dictionary
10. Sha’n so‘zining izohi. // https://izoh.uz/word/sha%CA%BCn
11. Qadr-qimmat. // https://uz.wikiquote.org/wiki/Qadr-qimmat
12. Miranda qoidasi. // https://uz.wikipedia.org/wiki/Miranda_qoidasi
13. Habeas corpus O‘zbekistonda inson huquqlarining ishonchli kafolati. // https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/habeas_corpus_uzbekistonda_inson_huquqlarining_ishonchli_kafolati
14. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada aybsizlik prezumpsiyasining mustahkamlanishi. // https://uzmarkaz.uz/uzc/news/yangi-tahrirdagi-konstitutsiyada-aybsizlik-prezumpsiyasining-mustahkamlanishi
15. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aybsizlik prezumptsiyasining mustahkamlanishi. // https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-respublikasi-konstitutsiyasida-aybsizlik-prezumptsiyasining-mustahkamlanishi
16. Tadqiqotlar.uz maqolasi. // https://tadqiqotlar.uz/new/article/download/3269/3088/6160